

“MA’QULLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining

2023-yil “20” iyun dagi
79-3-sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2023-yil “2” dekabr dagi
40-sonli bayonnomasi bilan

Boshqaruv raisi



O. Butayev

M. 

Kuzatuv kengashi raisi



O. Isakov



**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
Investitsiya siyosati
(yangi tahrirda)**

Toshkent – 2023-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Investitsiya siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur siyosat quyidagilarga mo‘ljallangan:

- nazorat qiluvchi organlar tomonidan va bankning ichki me‘yoriy hujjatlarida belgilangan mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda zarur likvidlilik darajasini saqlab qolgan holda daromad siyosatining amalga oshirilishini va bank risklarini minimallashtirishni ta‘minlash;

- aktivlarning but saqlanishiga rioya etishga va investitsiya portfelini yetarli darajada yuqori daromadlilik sharti bilan shakllantirishga, “daromadlilik – likvidlilik – tavakkalchilik darajasi” tamoyilini joriy etishga va ushbu omillar o‘rtasida oqilona muvozanatni saqlab turishga qaratilgan.

2-bob. Atamalar va tushunchalar

3. Mazkur Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

investitsiya portfeli – o‘z ichiga qimmatli qog‘ozlarni, hosila moliyaviy vositalarni va uchinchi shaxslarning ustav kapitalidagi ishtirokchilikni oluvchi moliyaviy vositalar majmuidir;

savdo portfeli – narxlarning qisqa muddatli tebranishlari natijasida foyda olish maqsadida moliyaviy vositalar oldi-sotdisi hisobiga shakllantiriladigan portfel;

Aktiv va passivlarni boshqarish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – APBQ) portfeli – likvidlilikning zarur darajasini saqlab turish uchun umumbank maqsadlarida shakllantiriladigan investitsiyalar portfeli;

g‘aznachilik operatsiyalari – APBQ va savdo portfelini shakllantirish va boshqarish bilan bog‘liq operatsiyalar;

investitsiya portfelining likvidliliği – portfel qiymatini yo‘qotmagan holda uni zudlik bilan pulga aylantira olish salohiyati;

bank likvidliliği (keyingi o‘rinlarda - likvidlilik) – bankning aktivlarning o‘sishini moliyalashtirish va majburiyatlarni ko‘zda tutilmagan (nomaqbul) yo‘qotishlarsiz o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash salohiyati;

likvidli aktivlar – qiymati bozor orqali shakllanadigan aktivlar bo‘lib, bozor qiymatida qisqa vaqt ichida oson xarid qilinadi, hech qanday ko‘zda tutilmagan (nomaqbul) yo‘qotishlarsiz sotiladi va xarid qilinadi;

adekvat (haqiqiy) qiymat – investitsiyalarning xaridor va sotuvchi o‘rtasida muzokaralar asosida belgilangan qiymati;

tavakkalchilik darajasi past mamlakatlar – Standard & Poor’s, Fitch Ratings va Moody’s Investors Service yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki e‘tirof etgan boshqa reyting kompaniyalarining reytinglari asosida investitsiyaviy reytingga ega bo‘lgan mamlakatlar;

bozor qiymati – investitsiyalarning faol bozorda kotirovka qilinadigan qiymati;

treyder – G‘aznachilik departamentining qimmatli qog‘ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshiruvchi xodimi;

investitsiya rejasi – bankning investitsiya portfelini va limitini aks ettiradigan hujjat;

moliyalashtirish rejasi – moliyalashtirish manbalari va muddatlari samarali diversifikatsiya qilinishini ta'minlovchi hujjat;

investitsiyalar – daromad olish maqsadida mablag'lar qo'yilmasini amalga oshirish;

to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – turli xil qimmatli qog'ozlarga uzoq muddatli investitsiyalar kiritilishi va uchinchi shaxslarning, shu jumladan sho'ba korxonalarning faoliyatini moliyalashtirish va kompaniya biznesini nazorat qilish maqsadida ularning ustav kapitalida ishtirok etish;

Stop-loss limiti – pozitsiya bo'yicha yo'l qo'yiladigan yo'qotishlar limiti.

3-bob. Investitsiyalashning maqsad va vazifalari

4. Mazkur Siyosat Bank likvidligining yetarli darajada ushlab turishga va bank riskini minimallashtirishga qaratilgan.

5. Siyosatning maqsadi investitsiya portfelining o'sib borishini va investitsiya riskining minimallashtirishini ta'minlaydigan yuqori likvidli va ishonchli moliyaviy vositalardan investitsiya portfelini shakllantirishdan iborat.

6. Siyosatning amalga oshirilishi Bankning umumiy strategiyasi bajarilishiga zid bo'lishi mumkin emas.

7. Ushbu maqsadlarga erishishi uchun quyidagi yo'nalishlar belgilanadi:

Bank likvidligini boshqarish;

Bank valyuta pozitsiyasini boshqarish;

Bank investitsiyalar portfelini shakllantirish.

4-bob. Bank likvidligini boshqarish

8. Bankning likvidligini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining prudensial me'yorlari va bankning ichki limitlarini hisobga olgan holda majburiyatlarni bajarish maqsadida mablag'larni yuqori likvidli aktivlarga joylashtirishni nazarda tutadi.

9. Bank likvidligini nazorat qilish va boshqarish uchun mas'ul bo'linma Bankning likvidligini boshqarish va rejalashtirish bo'limi hisoblanadi. Ushbu bo'lim operatsiyalari bunday harakatlarga ta'sir ko'rsatadigan tarkibiy bo'linmalardan bank aktivlari va passivlari harakati to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni to'playdi.

10. G'aznachilik departamenti Bankning tegishli likvidlik darajasini saqlab turish uchun Bankning likvidligini boshqarish va rejalashtirish bo'limi nomidan banklararo bozorga jalb qilish va joylashtirishni amalga oshiradi.

11. Aktivlar va passivlarni boshqarish boshqarmasi likvidlikni boshqarishda muvozanatli yondashuvga amal qiladi:

kutilgan talabni qondirish uchun likvidli aktivlarni to'plash (aktivlarni boshqarish);

kutilmagan likvidlik ehtiyojlari (passivlarni boshqarish) yuzaga kelgan taqdirda bozordan aktivlarni sotib olish.

12. Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi yuqori likvidli aktivlarning zarur zaxirasini belgilaydi, likvid mablag'larga talab bo'lgan taqdirda ular naqd pulga aylantiriladi.

13. Likvidlilik bo'yicha kutilmagan ehtiyoj vujudga kelgan holatlarda Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi REPO operatsiyalari, banklararo bozordan qarz olish, qarzga oid majburiyatlarni chiqarish va bank passivlarini ko'paytirish va boshqarish kabi operatsiyalar bilan bog'liq boshqa operatsiyalardan foydalanishni o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi.

14. Likvidlilikni boshqarishda Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi Risk menejmenti departamenti bilan birgalikda likvidlilik riskining Bank o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan yo'l qo'yiladigan (risksiz) darajasini belgilaydi.

15. Likvidlilikning yo'l qo'yiladigan darajasi Bank likvidlili riskini o'lchashga oid ichki hujjati asosida hisoblab topiladi. Riskning yo'l qo'yiladigan darajasining xatarsizligi bankning likvidlilik riskini katta yo'qotishlarsiz (zararsiz), o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash orqali boshqara olish salohiyati bilan belgilanadi.

16. Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi barqarorlikni ta'minlash maqsadida qarzlardan xoli bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining prudensial me'yorlariga va Bank ichki limitiga muvofiq o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan darajadagi yo'l qo'yiladigan likvidlilik riskiga mutanosib yuqori likvidli aktivlar ko'rinishidagi xavfsizlik yostiqchasi (zaxirasi) ustidan tahlil va monitoring o'tkazib boradi.

17. Likvidlilikni boshqarish uchun Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi muntazam ravishda:

Bankning resurs bazasi barqarorligini moliyalashtirish manbalarining differentsiatsiyasini hisobga olgan holda tahlil qilib boradi;

moliyalashtirish manbalari bilan aktivlarni joylashtirish yo'nalishlarining mutanosiblik darajasini aniqlaydi;

to'plangan yuqori likvidli aktivlar bilan bozordan qarzga olinishi mumkin bo'lgan aktivlarning Bank uchun optimal hisoblangan nisbatini aniqlaydi;

likvidli mablag'larga bo'lgan talabning prognoz tahlilini o'tkazadi va pul mablag'lari bozorini foiz stavkalari dinamikasi nuqtayi nazaridan hamda likvidlilikni to'ldirish manbalarining ochiqlik darajasi nuqtayi nazaridan prognoz qilib boradi;

o'z aktivlarining va majburiyatlarining so'ndirilish muddatlariga hamda resurslarning markazlashuviga ko'ra mutanosibligini tahlil qilib boradi.

18. Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi likvidlikni monitoring va nazorat qilish maqsadida, Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan me'yorlar va Bank ichki limitlariga rioya qilish bo'yicha muntazam ravishda joriy likvidlilik, likvidlilikni qoplash, sof barqaror moliyalashtirish va yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi va boshqa limitlar ustidan tahlil va monitoring o'tkazib boradi.

5-bob. Bank valyuta pozitsiyasini boshqarish.

19. Bank valyuta pozitsiyasini boshqarish – Markaziy bankning prudensial normativlari va bankning ichki limitlarini hisobga olgan holda, mijozlar tomonidan valyutani sotib olish/sotish bo'yicha so'rovlari va valyuta bozoridagi valyuta kurslari o'zgarganda, valyuta pozitsiyasi darajasini optimal darajada ushlab turishga qaratilgan protseduralar majmuidir.

20. G'aznachilik boshqarmasi bank valyuta pozitsiyasining joriy holati bo'yicha mas'ul bo'linmasi hisoblanadi.

21. G'aznachilik boshqarmasi valyuta pozitsiyasining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining prudensial me'yorlari va bank ichki limitlariga muvofiqligi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

22. G'aznachilik boshqarmasi o'z vaqtida qarorlar qabul qilishini ta'minlash maqsadida, bank bo'linmalari tomonidan, valyuta pozitsiyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan bank operatsiyalari bo'yicha hisobot berishi shart.

6-bob. Investitsiya portfelini shakllantirish

23. Investitsiya portfelini shakllantirishda, bank "sotib ol va ushlab tur" ("buy and hold") tamoyili va "arzonroq sotib olish, qimmatroq sotish" ("buy at low sell at high") tamoyili asosida investitsiya portfelini boshqarish strategiyasiga amal qiladi, shu bilan birga o'rtacha investitsiya strategiyasini amalga oshiradi.

24. G'aznachilik departamenti daromadlilikni oshirish va likvidlikni saqlab turish maqsadida turli muddatlarga ega qimmatli qog'ozlar chiqarilishini va ularning muddati tugashi bilan ularni almashtirishni o'z ichiga olgan keng diversifikatsiyalangan portfelni shakllantirishni nazarda tutuvchi tamoyilga amal qiladi. Agarda, bozor o'zgarishlari bankning investitsiya maqsadlariga mos kelmaganda, portfel tarkibi o'zgaradi.

25. Bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan moliyaviy vositalar ro'yxati va ularga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, bankning ichki me'yoriy hujjatlariga va ular uchun o'rnatilgan limitlarga muvofiq belgilanadi va investitsiya rejasida aks ettiriladi.

26. Investitsiya portfeli quyidagi turlarga ajratiladi:

savdo portfeli;

APBQ portfeli;

to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (boshqa yuridik shaxslarning kapitalida ulushli ishtiroki).

27. G'aznachilik departamenti quyidagilarni amalga oshiradi:

aktivlarni diversifikatsiya qilish (tizimli bo'lmagan riskni kamaytirish uchun turli moliyaviy vositalarga investitsiya kiritish) va riskni xedjirlash orqali portfel risklarini faol boshqarish;

investitsiya rejasining bajarilishini, qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlarga rioya etilishini, iqtisodiy konyukturani va emitentlarning holatini muntazam monitoring qilib borish.

28. Investitsiya rejasi doirasida bankning Aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi qarori bilan investitsiya portfeli tuzilmasi tasdiqlanadi.

29. G'aznachilik departamenti portfelning qiymat tarkibini yaxshilash uchun yoki bozor konyunkturasi keskin o'zgarganda investitsiya portfeliga oid savdo operatsiyalarini amalga oshiradi. Investitsiyalar portfeli tarkibini o'zgartirish to'g'risidagi taklif G'aznachilik departamenti tomonidan tayyorlanadi va APBQga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritiladi.

30. Investitsiya portfelini shakllantirish jarayonida quyidagi xatarlar yuzaga kelishi mumkin:

tizimli risk;

selektiv risk;

likvidlilik riski;
kredit riski;
foiz riski;
siyosiy-iqtisodiy risk;
valyuta riski;
narx riski.

31. Investitsiyalashda yuqorida aytib o'tilgan barcha risklarni hisobga olish kerak. Mazkur risklarni boshqarish Siyosatni amalga oshirish jarayonining tarkibiy qismidir va investitsiyalashda ularning barchasi hisobga olinadi.

32. Risk menejmenti departamenti barcha turdagi risklarni (kredit, bozor, foiz, narx, valyuta, mamlakat, huquqiy, jamg'armaga oid, operatsiyaga oid, likvidlilikni yo'qotishga oid risklarni) baholash, o'lchash, nazorat va monitoring qilish orqali ularni boshqarib boradi.

7-bob. Investitsiya jarayonini tashkil etish

33. APBQ o'z vakolatlari doirasida Siyosatni amalga oshirish maqsadida quyidagilarni tasdiqlash to'g'risida qarorlar qabul qiladi:

qimmatli qog'ozlar portfeliga va hosila vositalariga oid umumiy limitni;
investitsiya rejasiga muvofiq investitsiyalar tarkibiy tuzilmasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni;
qimmatli qog'ozlarning mezonlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni;
qimmatli qog'ozlar emitentlariga nisbatan qo'yiladigan limitlarni;
hosila vositalarining tarkibiy tuzilmasiga nisbatan qo'yiladigan limitlarni;
stop-loss limitlarini.

34. Investitsiyalar portfeli tarkibi bo'yicha takliflar Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi tomonidan tayyorlanib G'aznachilik departamenti bilan kelishiladi hamda Investitsiya rejasida aks ettirilib portfelning maksimal riski bo'yicha xulosa tayyorlash uchun Risk menejmenti departamentiga taqdim etiladi. G'aznachilik departamenti Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi hamda Risk menejmenti departamentining xulosasini inobatga olgan holda tayyorlangan Investitsiya rejasini APBQ muhokamasiga kiritadi. Investitsiya portfelining tarkibi APBQ tomonidan kelgusi moliya yili uchun tasdiqlanadi va zarur holatlarda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

35. Balansning maqbul tarkibini va tasdiqlangan risk chegaralarini saqlash zarurligini hisobga olgan holda, Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasining umumiy siyosatini belgilashda, qimmatli qog'ozlarning va hosila vositalarning investitsiya portfeliga va savdo portfeliga umumiy limit Aktiv va passivlar boshqarish boshqarmasi tomonidan taklif qilinadi, risk menejmenti departamenti bilan kelishiladi va APBQ tomonidan o'rnatiladi.

36. Investitsiya portfelining tuzilishiga va qimmatli qog'ozlar derivativlarining parametrlariga qo'yiladigan talablar, bankning likvidlik talablari hamda umumiy iqtisodiy vaziyatni, shu jumladan bozorning likvidlilik holatini hisobga olgan holda belgilanadi.

37. Qimmatli qog'ozlarning emitentlariga qo'yiladigan limitlar kredit va jamg'armaga oid risklarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

38. Stop-loss limitlari matematik usulda hisoblab chiqiladigan risklarni hisobga olgan holda o'rnatiladi.

39. Investitsiya rejasi limitlarining bajarilishi uchun javobgarlik bankning G'aznachilik departamentiga yuklanadi.

40. Investitsiya rejasining limitlarini tahlil va monitoring qilish uchun javobgarlik Bankning Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasiga yuklanadi.

41. Investitsiya rejasi (investitsiya va savdo portfeli) doirasida moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar g'aznachilik departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

42. G'aznachilik departamenti tomonidan amalga oshirilgan bitimlarni kuzatib boruvchi Bankning G'aznachilik Bek-offisi qimmatli qog'ozlar bilan o'tkazilgan operatsiyalar hisobini amalga oshiradi, tasdiqlaydi va joriy nazorat qilib boradi.

43. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – bevosita biznesga kiritiladigan kapital qo'yimlari bo'lib, o'z ichiga xaridlarni, kompaniyaning tuzilishi yoki kengaytirilishini, shuningdek kompaniya ustidan nazorat o'rnatish (nazoratni kuchaytirish) yoki Bank faoliyatini keqaytirish bilan bog'liq boshqa barcha operatsiyalarni oladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qimmatli qog'ozlar portfeli ko'rinishida shakllantiriladigan ammo o'z egalariga kompaniya ustidan nazorat qilish huquqini bermaydigan qimmatli qog'ozlarga kiritiladigan investitsiyalarni, shuningdek investorlarga sarmoya kiritilayotgan ishlab chiqarish ustidan nazorat qilish huquqini ta'minlovchi investitsiyalarni o'z ichiga oladi.

44. Investitsiyalarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

investitsiyalarning xavfsizligi (daromadning barqarorligi, investitsiya kapitali bozorida mustahkam mavqega egalik);

investitsiyalarning daromadliligi;

investitsiyalarning o'sishi.

45. Qonunchilikka muvofiq bank to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qatoriga quyidagilarni kiritadi:

Bankning O'zbekiston Respublikasi xududida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa banklar, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, lizing beruvchi tashkilotlar, shuningdek fond birjasida oliy toifadagi aksiyalar ro'yxatiga kiritilgan yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi ishtiroki;

Bankning moliya bozori infratuzilmasining bir qismi hisoblangan va (yoki) banklar va tashkilotlar faoliyatni avtomatlashtirishni amalga oshirayotgan, alohida bank operatsiyalarini bajarayotgan yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi ishtiroki;

Bankning qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning ustav kapitalidagi ishtiroki;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa turdagi ishtiroki.

46. Bankning boshqa kompaniyalarning ustav kapitalidagi ishtiroki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmazligi lozim.

47. Uchinchi shaxslarning ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish uchinchi shaxsning biznesini sotib olish yoki hissadorlik ishtirokini anglatadi.

48. Uchinchi shaxslarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish jarayonini boshqarish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

sotib olinayotgan biznesni amaldagi qonunchilik talablarini, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirganda Bank tomonidan prudensial me'yorlarga rioya etilishini, shuningdek investitsiya obyektining asosiy biznesi qiymatining rejali tartibda o'sishini hisobga olgan holda tanlab olish va asoslantirish;

biznesni sotib olishning optimal strategiyasini ishlab chiqish;

barcha risklarning, shu jumladan sotib olinayotgan biznesni birgalikda boshqarish riskini tahlil qilish (biznesning 100% dan kamroq qismi sotib olinayotgan taqdirda);

investitsiyalar to'g'risida qaror qabul qilish.

49. Uzoq muddatli investitsiyalarga oid takliflar va ularning asoslantirilishi Bankning manfaatdor bo'linmasi tomonidan bankning umumiy strategiyasi doirasida tayyorlanadi va Bankning quyidagi bo'linmalari xulosalarini olgan holda bank Boshqaruvi bilan kelishiladi:

Risk menejmenti departamenti xulosasi (prudensial me'yorlarning bajarilishi);

Byudjet-kontrolling va hisobotlar departamenti xulosasi (bank Biznes-rejasining bajarilishi);

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti xulosasi (biznesni baholash, tahlil qilish);

Buxgalteriya hisobi departamenti xulosasi (buxgalteriya hisobi, bank ko'rsatkichlariga ta'siri);

Yuridik departamenti xulosasi (yuridik ekspertiza);

Ichki nazorat va sanksiyaviy komplaens departamenti xulosalari (zarur holatlarda dastlabki auditorlik xulosasi).

50. Ushbu hujjatlar jildi bank Boshqaruvi tomonidan muhokama qilinib, tasdiqlanadi va shundan keyin bank Kuzatuv kengashi tasdig'iga kiritiladi.

51. To'g'ridan-to'g'ri investitsiya operatsiyalarining limitlari Bankning tasdiqlangan ichki limitlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida aks ettirilgan talablarga muvofiq belgilanadi.

52. Bankning buxgalteriya hisobida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq aks ettiriladi.

8-bob. Moliyalashtirish rejasi

53. Investitsiya rejasini ishlab chiqishda aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi majburiy ravishda moliyalashtirish manbalari va muddatlarini diversifikatsiya qilishga yo'naltirilgan Moliyalashtirish rejasini ham ishlab chiqadi.

54. Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda mavjud moliyalashtirish ochiq manbalarini diversifikatsiya qiladi.

55. Diversifikatsiya maqsadlari o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirish rejalarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi hamda Biznes-rejani rejalashtirish jarayoniga mutanosib bo'lishi shart.

56. Bank balansini tuzilmasini diversifikatsiya qilish quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

Bank balansining optimal, shu jumladan balansning valyuta va muddatli tuzilmasini saqlab qolish orqali alohida bank operatsiyalari konsentratsiyasini pasaytirish;

moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;

Bankning aktiv va passiv operatsiyalarini muntazam monitoring qilish.

57. Balansning valyuta tuzilishi Bankning valyuta turlari bo'yicha guruhlangan aktiv va passivlarini belgilaydi.

58. Balansning muddatli tuzilmasi to'lov muddatiga qarab Bankning aktivlari va majburiyatlarini belgilaydi.

59. Ichki me'yoriy hujjatlarda balansning optimal (valyuta va muddatli) tuzilmasiga qo'yiladigan talab tizimi belgilab qo'yiladi, bu esa moliyalashtirish manbalari va muddatlarini samarali diversifikatsiya qilinishini ta'minlaydi.

60. Moliyalashtirish rejasini ishlab chiqish va monitoring qilish uchun Aktiv va passivlarni boshqarish boshqarmasi javobgar hisoblanadi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

61. Mazkur Siyosat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanib va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

62. Mazkur Siyosatda ko'rsatib o'tilmagan holatlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

63. Risklarni boshqarish Bankning risklarni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan siyosatlari hamda boshqa ichki me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

64. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Siyosatda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Siyosat qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

65. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida, ushbu Siyosatning ayrim bandlari unga zid bo'lib yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, mazkur Siyosatga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

66. Mazkur Investitsiya siyosati tasdiqlanishi munosabati bilan Boshqaruvning 2022-yil 19-yanvardagi 3-2-sonli qarori bilan ma'qullangan hamda Kuzatuv Kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 26-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining Investitsiya siyosati o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

